

“Madaniy o’simliklar genetik resurslarini saqlash va ulardan oqilona foydalanish to’g’risida”gi Qonun loyihasi muhokamasida ishtirok eting!

Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portalı regulation.gov.uzga “**Madaniy o’simliklar genetik resurslarini saqlash va ulardan oqilona foydalanish to’g’risida**”gi O’zbekiston Respublikasi Qonuni loyihasi muhokama uchun joylandi.

Ushbu Qonun oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va qishloq xo’jaligini yuritish, ilmiy tadqiqot, seleksion va ta’lim faoliyatini amalga oshirish, shuningdek hozirgi va kelajak avlod manfaatlarini hisobga olgan holda ijtimoiy-madaniy va tarixiy merosning saqlanishini ta’minlash uchun madaniy o’simliklar, shu jumladan, ularning yovvoyi shakllari mahalliy va jahon genetik resurslarini saqlash va ulardan oqilona foydalanish yuzasidan davlat siyosati huquqiy asoslarini belgilaydi.

Qonun loyihasining to’liq manti bilan quyidagi havola orqali ishtirok etish mumkin:
<https://regulation.gov.uz/uz/d/32140>